



SURXONDARYO VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI



SURXONDARYO VILOYATIDA ASOSIY KAPITALGA O'ZLASHTIRILGAN INVESTITSIYALAR

**2022- YIL
YANVAR-IYUN**



Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar 2022- yil yanvar-iyun

Jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi:
5 422,0 mlrd. so'm

O'sish sur'ati:
101,4 %

Asosiy kapitalga investitsiyalar

Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan:
976,0 mlrd. so'm

Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan:
4 446,0 mlrd. so'm

Joriy davrda 5 422,0 mlrd. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, ularning 67,7 % jalb etilgan mablag'lar hisobidan moliyalashtirilgan bo'lsa, korxona, tashkilot va aholining o'z mablag'lari hisobidan 32,3 % moliyalashtirildi.

Markazlashgan manbalari hisobidan:

Respublika byudjeti:
544,2 mlrd. so'm

Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi:
69,0 mlrd. so'm

O'zR kafolati ostida xorijiy kreditlar:
362,8 mlrd. so'm

Markazlashmagan manbalari hisobidan:

Aholi mablag'lari :
841,7 mlrd. so'm

Korxona mablag'lari:
910,7 mlrd. so'm


Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari:
443,8 mlrd. so'm

To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar:
2 249,8 mlrd. so'm

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning katta qismi, ya'ni jami investitsiyalarning 41,5 % to'g'ridan - to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan moliyalashtirilgan. Shuningdek, korxona va tashkilotlarning o'z mablag'lari 16,8 %, aholi mablag'lari hisobidan 15,5 %, tijorat banklar kreditlari va boshqa qarz mablag'lari 8,2 %, Respublika byudjeti 10,0 %, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar 6,7 % va suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi 1,3 % asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi.

**Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga
o'zlashtirilgan investitsiyalar
(jami hajmdagi ulushi, % da)**





Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar


	Mird. so'm	o'sish sur'ati, % da	jamiga nisbatan, % da
Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan	5 422,0	101,4	100,0
Respublika byudjeti	544,2	153,6	10,0
Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	69,0	75,1	1,3
O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar	362,8	65,4	6,7
Korxona mablag'lari	910,7	193,9	16,8
Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	443,8	100,6	8,2
To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar	2249,8	86,7	41,5
Aholi mablag'lari	841,7	108,4	15,5



**Shahar va tumanlar kesimida
asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar**


	Mird. so'm	o'sish sur'ati, % da	jamiga nisbatan, % da
Surxondaryo viloyati	5 422,0	101,4	100,0
Termiz sh. <i>tumanlar</i>	927,2	127,3	17,1
Oltinsoy	165,9	111,6	3,1
Angor	236,2	118,2	4,4
Bandixon	121,0	193,4	2,2
Boysun	774,9	85,0	14,3
Denov	741,2	112,1	13,7
Jarqo'rg'on	332,7	154,8	6,1
Qiziriq	119,0	76,3	2,2
Qumqo'rg'on	246,8	68,5	4,5
Muzrabot	166,4	61,0	3,1
Sariosiyo	384,8	61,4	7,1
Termiz	532,6	154,0	9,8
Uzun	112,4	81,2	2,1
Sherobod	344,6	94,8	6,3
Sho'rchi	216,3	138,8	4,0

**Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning
o'sish sur'atlari, % da**



Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning shahar va tumanlar kesimida yuqori o'sish sur'ati Bandixon tumanida kuzatilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 193,4 %, Jarqo'rg'on tumanida 154,8 %, Termiz tumanida 154,0 %, Sho'rchi tumanida 138,8 %, Angor tumanida 118,2 %, Denov tumanida 112,1 % va Termiz shahrida 127,3 % ni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga oʼzlashtirilgan investitsiyalar



jamiga nisbatan, % da

Asosiy kapitalga oʼzlashtirilgan investitsiyalarning hajmi boʼyicha hududlar kesimida Termiz shahri yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 17,1 % oʼzlashtirildi.


Shuningdek Termiz shahridan keyingi oʼrinda Boysun tumani –14,3 % ni tashkil etmoqda.

Denov tumani va Termiz tumanlarida ushbu koʼrsatkich mos ravishda – 13,7 va 9,8 % ni tashkil etdi.

Sariosiyo hamda Sherobod tumanlarida investitsiyalarning viloyatdagi ulushi – 7,1 va 6,3 % ni tashkil etgan boʼlsa, Uzun tumanida bu koʼrsatkich boʼyicha eng kami boʼldi – 2,1 %.




Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi



Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish montaj ishlari bo'yicha – 3 092,9 mlrd. so'm o'zlashtirilgan bo'lsa, mashina, uskuna va inventarlarga investitsiyalar – 1 616,9 mlrd. so'm va boshqa xarajatlarga – 712,2 mlrd. so'm o'zlashtirildi.



Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi (jamiga nisbatan, % da)




Joriy davrda ham asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning aksariyat qismi yangi qurilishga yo'naltirilgan. Yangi qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi – 3 243,7 mlrd. so'mni tashkil etib, jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 59,8 % ini tashkil etdi.

Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar – 1 529,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va viloyatda jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 28,2 % ini tashkil etdi. Qolgan 12,0 %, yani – 648,8 mlrd. so'm boshqa xarajatlarga yo'naltirildi.



Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



jamiga nisbatan, % da

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida turar-joy qurilishi yetakchilik qilmoqda. Ushbu tarmoqda jami moliyalashtirish manbalari hisobidan – 976,1 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning 18,0 % o'zlashtirilgan.

Qayta ishslash sanoati tarkibida eng ko'p investitsiya o'zlashtirilgan 2 faoliyat turi quyidagilar:

- Oziq ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish - 140,1 mlrd. so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 2,6 %);
- to'qimachilik mahsulotlari va kiyim kechak ishlab chiqarish – 500,6 mlrd. so'm (9,2 %);

Tashish va saqlashda – 505,6 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 9,3 % o'zlashtirildi.




Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar



mlrd. so'm

	Jami investitsiya va kreditlar	shu jumladan:		To'g'ridan – to'g'ri investitsiyalar	Boshqa investitsiya va kafolatmagan kreditlar	shu jumladan:	
		Investitsiyalar	kreditlar			Investitsiya-lar	Kafolatlan-magan kreditlar
Surxondaryo	2 612,6	1 043,9	1 568,7	1 014,7	1 235,1	29,2	1 205,9
Termiz sh. tumanlar:	314,0	128,7	185,3	100,6	175,7	28,1	147,6
Oltinsoy	50,8	2,2	48,6	2,2	43,1	-	43,1
Angor	169,7	11,0	158,7	11,0	156,7	-	156,7
Bandixon	54,1	29,8	24,3	29,8	23,0	-	23,0
Boysun	659,6	570,0	89,6	570,0	86,8	-	86,8
Denov	274,9	58,6	216,3	58,6	186,7	-	186,7
Jarqo'rg'on	114,5	4,4	110,1	4,4	106,9	-	106,9
Qiziriq	23,0	-	23,0	-	22,1	-	22,1
Qumqo'rg'on	110,5	16,8	93,7	16,8	56,1	-	56,1
Muzrabot	71,8	44,2	27,6	44,2	27,6	-	27,6
Sariosiyo	176,6	70,7	105,9	70,7	1,7	-	1,7
Termiz	236,4	54,1	182,3	54,1	150,0	-	150,0
Uzun	43,9	25,7	18,2	25,7	17,0	-	17,0
Sherobod	217,1	1,1	216,0	0,1	137,3	1,1	136,2
Sho'rchi	95,7	26,5	69,2	26,5	44,4	-	44,4

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar




Joriy davrda ham asosiy kapitalga xorijiy investitsiyalar va kreditlarning katta qismi qayta ishslash sanoati o'zlashtirilib, u 711,9 mlrd. so'mni yoki jami xorijiy investitsiya va kreditlar hajmida 27,2 % ni tashkil etdi.

Hajm jihatidan keyingi o'rinni tog'-kon sanoati egallagan. Ushbu faoliyat turi bo'yicha – 532,4 mlrd. so'm yoki jami xorijiy investitsiya va kreditlarning 20,4 % o'zlashtirildi.

Qishloq xo'jaligi faoliyati bo'yicha - 372,8 mlrd. so'm, tashish va saqlash faoliyati bo'yicha – 127,2 mlrd. so'm xorijiy investitsiya va kreditlar o'zlashtirilgan.



Foydalanishga topshirilgan turar joylar



Ijtimoiy sohada joriy davrda jami umumiy maydoni 655,4 ming kv.m bo'lgan 3357 ta turar joy obyekti yangi qurilib, ulardan umumiy maydoni 517,8 ming kv.m bo'lgan 2663 tasi qishloq joylashgan.

Turar joylarning hududlar kesimida ko'radigan bo'lsak, eng ko'pi Denov tumanida ishga tushirilgan 104,0 ming kv.m va u viloyat bo'yicha ishga tushirilgan jami umumiy maydonning 15,9 % ini tashkil etdi. Keyingi o'rnlarda Sariosiyo va Sherobod tumanlari egallagan bo'lib, viloyat bo'yicha ishga tushirilgan jami umumiy maydonning 15,9 va 9,7 % ini tashkil etishgan.

Eng kam turar joy Uzun tumanida ishga tushirilgan bo'lib, uning ulushi 1,6 % ni tashkil etdi.



**Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi
Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi**

Aloqa telefoni:

(76) 225-65-59